E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

BADIIY TARJIMADA MILLIY O'ZIGA XOSLIKNI QAYTA YARATISHNING NAZARIY MUAMMOLARI

Crossref Doi : https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-10

To'xtanova Mumtozbegim Ortiqali qizi

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktaranti

Annotation

This article is about how to color the translation with the cultural identity. And it briefly describes some kind of methods of translation.

Annotatsiya

Ushbu maqola badiiy tarjimada milliylikni aks ettirishning nazariy muammolarini qisqacha yoritib beradi. Unda tarjimaning ba'zi bir usullari, me'zonlari qisqacha yoritib beriladi.

Аннотация

В данной статье кратко освещены теоретические проблемы репрезентации национальности в художественном переводе. В нем кратко объясняются некоторые методы и критерии перевода.

Tarjima murakkab jarayon bo'lib, ta'sir va aks ta'sir xarakterida, o'zaro ko'p tomonlama bir necha xalqlar madaniyatlari va ularning tillari ishtirokida bo'ladi. Xalqlar hech qachon bir-birlaridan mutlaq ajralgan holda yashashlari mumkin bo'lmagani singari, ularning moddiy va madaniy yodgorliklari, adabiyoti va san'ati ham hech qachon faqat bir milliy chegara doirasida "sof holda" saqlanib qolmagan.

Ko'p asrlik an'anaga ega bo'lgan milliy adabiyotlarning hammasida ham tarjima o'ziga munosib o'rinni egallaydi. Badiiy tafakkur mevasi bo'lmish so'z san'atining tur va xillari, uslub va usullari rang-barang bo'lganidek, uning tarjimasida ham xilma-xil tadbirlar, yo'llar, usul va uslublar mavjud. Bu hol badiiy tarjima oldiga qo'shimcha ravishda yana bir qancha muammolarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Tillar orasidagi sof lisoniy farq natijasida badiiy asar tarjimasida o'ziga xos milliy, intonatsiya, uslub va hokazo masalalar ham ko'ndalang bo'lib turadi.

Tarjimon o'zi o'girayotgan kitob matni ichra chegaralangandir. Tashqariga chiqolmaydi – avtor ilgari surgan g'oyani davom ettirolmaydi, xuddi shuningdek, asarni qisqartirishga ham uning haddi sig'maydi. Qisqacha qilib aytganda, tarjimon mavjud narsani faqat tarjima qiladi. Lekin tarjima dargohi bu qadar chegaralangan bo'lishiga qaramay, u so'z san'ati jumlasiga kiradi. Buning sababi, tarjimon til sohasida ijod qiladi. Tilning asosiy qurilish materiali esa so'zdir. Badiiy adabiyot uchun g'oyatda muhim bo'lgan ko'rsatkichlar – badiiylik, obraz va obrazlilik, majoz va majoziylik – barchasi so'z zamirida yashiringan, so'zda o'z ifodasini topadi va so'z orqali reallashadi. Binobarin, so'z tanlash badiiy tarjimada birlamchi ahamiyatga ega. Biroq

masalaning boshqa tomoni ham bor. Badiiy tarjimada asosiy gap alohida olingan biron so’z yoki jumlani tarjimon qanday o’girganidagina emas.

Badiiy tarjimada baholash mezoni talqindir. Uni qayta yaratish jarayoni esa uch bosqichda amalga oshadi:

1. Asl nushani tarjimon qanday tushunishi.
2. Asarning g’oyasi, avtorning maqsad-muddaosi va uning o’ziga xos uslubini qanday talqin qilishi.
3. So’z san’ati namunasini o’z ona tilida qayta tiklashda muqobil vosita, tadbir va tadorik topa olishi.

Badiiy asarni o’girishda asosiy omil original lug’atini tarjimachi-tilning muqobil-lug’ati bilan almashtirish emas, balki muallifning o’zligi, asar konsepsiyasi, ayni asrda aks etgan so’z asn’atini qayta ifodalay olishdan iborat. Badiiy tarjimani ilmiy tavsiflash eng qiyin xossasi shundaki, bunda so’zni-so’z bilan emas, balki ma’noni-ma’no, ohangni-ohang, obrazni-obraz, yumorni-yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir. Misol qilib Holid Husayniyning “Ming quyosh shu’lasi” asari o’zbekcha va ruscha tarjimalarida mutarjimlar iloji boricha afg’on hayoti tasvirini, muallif g’oyasini va obrazlarni o’quvchiga yetqizishga harakat qilishgan:

Mariam was five years old the first time she heard the word *harami.* It happened on a Thursday. It must have, because Mariam remembered that she had been restless and preoccupied that day, the way she was only on Thursdays, the day when Jalil visited her at the *kolba.* To pass the time until the moment that she would see him at last, crossing the knee-high grass in the clearing and waving, Mariam had climbed a chair and taken down her mother's Chinese tea set. The tea set was the sole relic that Mariam's mother, Nana, had of her own mother, who had died when Nana was two. Nana cherished each blue-and-white porcelain piece, the graceful curve of the pot's spout, the hand-painted finches and chrysanthemums, the dragon on the sugar bowl, meant to ward off evil.

Мариам было пять лет, когда она впервые услышала слово *харами*. Судя по всему, случилось это в четверг. Уж очень не по себе ей было, она просто места себе не находила. Ведь по четвергам к ним приходил Джалиль. Чтобы скоротать время (вот-вот он появится, помашет издали рукой, подойдет, по колено в высокой траве), Мариам забралась на стул и взяла с полки матушкин китайский чайный сервиз, единственную память после бабушки, матушкиной мамы, которая умерла, когда Мариам было два годика. Нана, мама Мариам, надышаться не могла на бело-голубые фарфоровые чашки в птицах и хризантемах, на чайник с благородно изогнутым носиком, на сахарницу с драконом, призванным отгонять силы зла.

Марям илк бор «ҳароми» деган сўзни эшитганида беш яшар қизалоқ эди. Хулласи калом, бу ҳодиса пайшанбада юз берганди. Ўшанда унинг эс-ҳуши жойида эмас, ўзини қўярга жой тополмасди. Ахир пайшанба кунлари уларнинг ёнига Жалил келарди-да! Вақтни тезроқ ўтказиш учун (ҳадемай у узоқдан қўлларини

силкитганча, тизза бўйи ўтлар-ни босиб кела бошлайди) Марям стулнинг устига чиқиб олди ва токчадаги хитойи чинниларга қўл узатди. Бу чинни сервиз Марямнинг икки яшарлигида дунёдан ўтган бувисидан қолган ягона ёдгорлик бўлиб, ойиси уни кўз қорачиғидек асрарди.Нана (Марям ойисини шундай атарди) қушлар ва хризантема гуллари тасвири туширилган пиёлаларни, тумшуғи эгик чойнакни, ёвуз руҳларни қувадиган аждар нусхаси солинган қанддонни, ҳатто ишлатишга ҳам кўзи қиймасди.

Yuqoridagi asarning originaliga e'tibor qaratilsa "haromi" va "kulba" so'zlarini yozuvchi ingliz tilida ekvivalent tarjimalarida emas, balki o'z ona tilidagi ekvivalent so'zlardan foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Buning sababi ushbu so'zlarning ingliz tili ekvivalentlari avg'on hayotini yorqin yoritib berolmasligidan va ifoda etolmaganidan asar muallifi o'z ona tilidan foydalangan. Va bu so'zlarni o'zbek tilida qayta yaratishga hojat qolmaganligidan, ularning tarjimasi bir muncha yengillashadi.

"Токчадаги хитойи чинниларга қўл узатди" jumladagi *tokcha* original matnda mavjud emas. Albatda tarjimon bu so'zni shunchaki qo'shib qo'ymagan, mutarjim afg'on hayoti va sharoiti bilan yahshi tanishligi ko'rinib turibti. O'zbek tilidagi *tokcha* so'zi uy ichida devordan bo'rttirib chiqarilgan joyni anglatishi hech kimga sir emas, qadimda bu idish-tovoq terib qo'yish uchun foydalanilgan. Asar tarjimasida *tokcha* so'zining qo'shib qo'yilishi asarga yanada ko'rk va o'quvchiga milliylik ruhini bahshida etadi.

"The tea set was ***the sole relic*** *that Mariam's mother, Nana, had of her own mother, who had died when Nana was two." – "Бу чинни сервиз Марямнинг икки яшарлигида дунёдан ўтган бувисидан қолган ягона ёдгорлик бўлиб, ойиси уни* ***кўз қорачиғидек асрарди****." Ushbu gapdagi* ***"the sole relic"*** *iborasi o'zbek tiliga* ***"ko'z qorachigidek asrardi"*** iborasiga tarjima qilingan. Ingliz tilidagi *relic* so'zi qadimdan yodgorlik bo'lib qolgan buyum va narsalarga ishlatiladi, *sole* so'zi esa *yagona* ma'nosini anglatadi. Bu ikki so'zni birlashtirgan holda esa tarjimon *ko'z qorachigidek asraydi* iborasini tanlagan, buning sababi original matnda chinnilar ota-onadan qolgan yodgorlik deb tasvirlanyapti. Har qanday aziz va yodgorlik bo'lib qolgan narsa-buyumlarni inson ko'z qorachigidek asrab avaylashi tabiiy hol, bundan ko'rinib turiptiki ko'z va qo'rachig inson uchun nozik va aziz hisoblanishi tufayli ham o'zbek tilida ushbu ibora qo'llaniladi. Ruscha matnda esa bu iborani *"единственную память"* deb to'g'ridan to'g'ti tarjima qilingan. Afg'on hayoti o'zbekning turush-turmushiga o'xshab ketganligi ham tilmoch uchun ancha qo'l kelgan.

Xulosa qilish mumkinki, yuqorida keltirilgan tarjima namunalarida milliylikni aks ettirish ruscha variantidan ko'ra o'zbekcha variantida go'zalroq chiqqan..

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Google Scholar OpenAIRE zenodo doi digital object identifier ResearchGate ADVANCED SCIENCE INDEX
SEMANTIC SCHOLAR Crossref DRJI Scientific Journal Impact Factor TOGETHER WE REACH THE GOAL
HARVARD LIBRARY The Dataverse Project Dimensions OCLC WorldCat

Foydalanilgan adabiyotlar

1) G'.Salomov – "Tarjima nazariyasiga kirish" Toshkent – 2015;
2) G'.Salomov – "Tarjima nazariyasi asoslari";
3) Xolid Husayniy – "Ming quyosh shu'lasi" – Toshkent – 2016 – Rustam Jabborov tarjimasi;
4) Khaled Hosseini – "A thousand splendid suns" – New York – 2007;
5) Халед Хоссейни – "Тысяча сияющих солнц"

WORDLY KNOWLEDGE